

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

7-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 7 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В ИНТЕГРАЦИИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА	9-14
<i>Nazirxo'jayev Muhammadalixo'ja Qosimxo'jayevich</i> 1945-1950-YILLARDA ANDIJON VA FARG'ONA VILOYATLARIDA HARBIY ASIRLARINING QURILISH VA XALQ XO'JALIGI ISHLARIGA JALB ETILISHI TARIXIDAN	15-22
<i>Xujaniyazov Uktam Eshbaevich</i> QORAQALPOG'ISTON DAVRIY MATBUOTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991-2018).....	23-27
<i>Toirjonova Ruxsora Shaxobiddinovna</i> SOVET DAVRIDA VAQF MULKLARI TAQDIRI VA DINIY MUASSASALARGA BO'LGAN MUNOSABAT	28-31
<i>Aytmuratova Janilsin, Quvvatova Charos</i> THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL PUBLIC EDUCATION, LITERATURE, AND ART	32-36
<i>Rahimova Zeboxon O'ktam qizi</i> XORAZM HUDUDIDAGI TARIXIY QAL'ALAR REKONSTRUKSIYASIDA 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	37-42
<i>Aytmuratov Jalgas, Doshniyazov Raxat</i> QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI	43-49

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANISHI VA AGLOMERATSIYALARNI SHAKLLANISH JARAYONLARI	50-57
<i>Amonov Mehridin Oromiddinovich</i> TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI RAHBARLIK USLUBLARI	58-63
<i>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</i> TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKIOTLAR TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO'LLANMALARINING TA'SIRINI TAHLIL ETISH	64-69

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Karimbayeva Salomatxon, Mirzaxmedov Abdurashid</i> IJTIMOIY TOLERANTLIKKA TA'RIF	70-74
<i>Qayumova Aziza Toshmuradovna</i> IBN XALDUN IQLIMLAR NAZARIYASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI.....	75-78
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGI KONTEKSTIDA "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDAGI G'OYALARNING IJTIMOYIY FALSAFIY TAHLILI	79-85

<i>Kubatov Shahobjon</i> 2016-2024-YILLARDA O'ZBEK JAMIYATI TAFAKKURIDA DAVLATNING IJTIMOIIY FUNKSIYALARI TAHLILI	86-96
<i>Abduraxmonov Is'haq, Jurayeva Rayxona</i> YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	97-100
<i>Raximova Yulduz Dilmurod qizi</i> ISLOM FALSAFASIDA INSON TALQINI	101-104
<i>Achilov Firdavs Nasritdin o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TA'LIMOTINING AHAMIYATI	105-108
<i>Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich</i> DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI.....	109-113
<i>Хамдамов Бехзод Хабибович</i> ФИЛОСОФИЯ ЛИЧНОСТИ И СУДЬБЫ В «БОБУРНАМЕ»	114-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Mamadaliyeva Odinaxon</i> DAVLAT TILIDA SIFAT VA SERTIFIKATLASH ATAMALARI IZOHLI LUG'ATINI YARATISH ZARURATI	119-125
<i>Алиева Эльвина, Расулова Дилбар</i> ИЗУЧЕНИЕ КОНВЕРГЕНЦИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА	126-134
<i>Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</i> LEKSIKOGRAFIYADA DARAJALANISH QONUNIYATINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI	135-144
<i>Qodirova Barno Ibragimovna</i> O'ZBEK FILOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA -IZM QO'SHIMCHASINING ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI	145-149
<i>Tursinbaev Ilham Po'latbay o'g'li</i> BOLALAR ADABIYOTIDA POEMANING JANRIY XUSUSIYATLARI	150-154
<i>Abdurahmonova Farangiz, Xudoymurodova Xurriyat</i> "SAG'RI TERI TILSIMI" FALSAFIY ROMANIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRINING BADIIY TALQINI	155-158

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Yunusov Xaydarali Muratovich</i> YEVROPA ITTIFOQI HUQUQINING ASOSIY PRINSIPLARI	159-168
<i>Zokirov Sherzod</i> O'ZBEK XONLIKLARIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHI: FUQAROLAR MUHOJIRLARI BILAN ISHLASH VA U BO'YICHA NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MISOLIDA	169-176
<i>Жураев Шерзод Юлдашевич</i> ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА ЗАЩИТЫ ДОВЕРИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	177-185

<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARIDAN CHEKINISHNI XALQARO STANDARTLARDA TARTIBGA SOLINISHI	186-192
<i>Мадаминова Дилафруз, Авазбекова Диёрахон</i> СОПРИКОСНОВЕНИЕ ИСЛАМСКИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ВОПРОСАХ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОПЕКИ НАД РЕБЁНКОМ	193-202
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	203-209
<i>Мукумов Бобур Мелибой угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЭКСПЕРТИЗА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВА, БИЗНЕСА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА	210-214
<i>Mamatmurodov Farrux Farhod o'g'li</i> FUNDAMENTAL DIFFERENCES AND ANALYSIS OF THE ORGANIZING PRINCIPLES OF ISLAMIC FINANCE AND TRADITIONAL FINANCE. IN THE EXAMPLE OF ISLAMIC BANKS AND TRADITIONAL BANKS	215-222
<i>Yarlakabov Sherali</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASH HUQUQIY ASOSLARINING NAZARIY JIHATLARI	223-228
<i>Боймурзаев Жасурбек Бахтиярович</i> ЗНАЧЕНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОПЕРАТИВНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В БОРЬБЕ С НАРКОТИКАМИ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	229-234
<i>Xadjiyev Azizbek Kadambayevich</i> “IJTIMOIY ADOLAT” TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBI VA XALQARO QONUNCHILIK HUIJATLARIDA TUTGAN O'RNI	235-240
<i>Abulxayrov Rustamxon Ibodullayevich</i> PORTLASHDAN KEYIN KO'ZDAN KECHIRISH DAVOMIDA OLINGAN ASHYOVIY DALILLAR BO'YICHA TAYINLANADIGAN PORTLASH-TEKNIK VA PORTLOVCHI MODDALAR EKSPERTIZALARI HAL ETADIGAN MASALALAR	241-249
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhaiyo Tojjiyevna</i> IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	250-256
<i>Menglikulov Xayrulla Aliqulovich</i> OLIY O'QUV YURTIDA JISMONIY TARBIYANING TASHKILY SHAKLLARI	257-263
<i>Jurayeva Balxiya Farhod qizi</i> ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA STEAM – TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI	264-270
<i>Nasritdinova Madina Nurullayevna</i> ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING BADIIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI TAHLILI VA SAMARADORLIK DARAJASI	271-275
<i>Charshanbiyev Namaz Maxmatmurodovich</i> KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	276-281

Received: 16 June 2025
Accepted: 5 July 2025
Published: 15 July 2025

Article / Original Paper

REGULATION OF DEROGATIONS FROM HUMAN RIGHTS IN INTERNATIONAL STANDARDS

Makhamatov Makhmud Maxamataminovich

Associate Professor of the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: mmahmud34@mail.ru

Abstract. This article analyzes the main standards for limiting human rights. These standards encompass exceptions, protections against abuse of rights, general or specific restrictive provisions, as well as provisions on the restriction of rights in emergency situations. The author proposes that recognizing the possibility of limiting human rights as an exception does not negate the principle of full and effective enjoyment of human rights, but rather specifies it. Derogation provisions may serve not to violate human rights, but to ensure the state's compliance with human rights obligations.

Keywords: human rights, international standards, exceptions to restrictions, Covid-19, abuse of rights, suspension of rights in special circumstances.

INSON HUQUQLARIDAN CHEKINISHNI XALQARO STANDARTLARDA TARTIBGA SOLINISHI

Maxamatov Maxmud Maxamataminovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida dotsenti,
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqola inson huquqlarini cheklashning asosiy standartlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mazkur standartlarda istisnolar, huquqlarni suiiste'mol qilishdan himoyalash, umumiy yoki maxsus xususiyatga ega cheklov bandlelari hamda favqulodda holatlarda huquqlarni cheklash bandlelari o'z aksini topgan. Muallif shunday g'oyani ilgari suradiki, inson huquqlarini istisno tariqasida cheklash imkoniyatini tan olish, inson huquqlaridan to'liq va samarali foydalanish tamoyilini bekor qilmaydi, aksincha uni aniqlashtiradi. Chekinish bandlelari inson huquqlarini buzish uchun emas, balki davlatning inson huquqlariga rioya etishini ta'minlash uchun xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, xalqaro standartlar, cheklash bo'yicha istisnolar, Covid-19, huquqlardan noto'g'ri foydalanish, alohida holatlarda huquqlarni to'xtatish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N28>

Xalqaro darajada inson huquqlari to'g'risida ham umumiy (shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklar to'g'risida), ham maxsus (bola, ayollar, nogironlar, qochoqlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jinoyat qurbonlari, qurolli mojarolar ishtirokchilari, mahbuslar huquqlari to'g'risida, kamsitish, qiynoqlar, qullik, genotsid, odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida) tUSDagi o'nlab shartnomalar tuzilgan [2].

Ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlar orasida “inson huquqlari bo'yicha xalqaro bill” deb ataluvchi BMTning universal xalqaro hujjatlari, xususan 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda mintaqaviy shartnoma 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi alohida ajralib turadi.

Ushbu xalqaro hujjatlar inson va fuqaroning umume'tirof etilgan, umumqabul qilingan va umummajburiy fundamental huquq va erkinliklarini xalqaro darajada mustahkamlash va mavjud bo'lish shakli, davlatlarning shaxs hayot faoliyatining xususiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklarning minimal standartlari to'g'risidagi o'ziga xos umumiy kelishuvlardir.

Yuqorida ko'rsatilgan xalqaro hujjatlarning qoidalari yuridik fanda inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining xalqaro standartlari yoki xalqaro gumanitar standartlar yoki shunchaki standartlar sifatida ko'rib chiqilishi va belgilanishi odat tusiga kirgan. Shaxsning xalqaro miqyosda mustahkamlangan huquq va erkinliklari, ularning ro'yxati, mazmuni va ahamiyati milliy norma ijodkorlik uchun majburiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi lozim. Masalan, B.S.Ebzevning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda shaxsning huquq va erkinliklariga nisbatan “xalqaro gumanitar standartlar...; inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini hamda davlatlarning ularni himoya qilish bo'yicha majburiyatlarini tushunishda birlikni nazarda tutuvchi xalqaro gumanitar konsensus...” [12, 28-bet] shakllangan.

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar shaxsning huquq va erkinliklaridan tashqari, ularni cheklashning prinsipial imkoniyatini, shuningdek, ba'zi huquq va erkinliklarni cheklashning maqsadlari, asoslari, tamoyillari, holatlari va usullarini mustahkamlaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda cheklovlar qo'llanilishi mumkinligiga yo'l qo'yiladi (29-modda) [2]. Inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlarning cheklashlarga taalluqli qoidalarini inson va fuqaro huquq va erkinliklarini cheklashning xalqaro standartlari, ya'ni demokratik davlatda shaxs huquq va erkinliklarining zarur cheklovlari, ularning ma'nosi, mohiyati, asoslanishi, zarurligi, maqsadlari, usullariga yagona xalqaro-huquqiy yondashuvlar sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bunday standartlarni ajratish imkoniyati haqida A.V.Malko shunday yozadi: “...umumiy huquqlarning xalqaro standartlari mavjud bo'lganidek, ularni cheklash standartlari ham mavjud bo'lishi kerak...” [9, 104-bet].

Ba'zi olimlar chekinish bandlaridan foydalanish inson huquqlariga putur etkazishi mumkinligi haqida tashvish bildirgan bo'lsa, boshqalari davlatlar suveren bo'lganligi sababli, o'z hududlarida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarni qanday hal qilishni o'zlari belgilashlari kerakligini ta'kidlaganlar. Chekinish bandlari inson huquqlarini buzish uchun emas, balki davlatning inson huquqlariga rioya etishini ta'minlash uchun xizmat qilishi mumkin. Buning sababi, huquqlardan chekinish ko'pincha qat'iy shartlar asosida amalga oshiriladi.

Huquqshunos A.V. Malko ta'kidlaganidek, “huquqiy cheklovlar konstitutsiyaviy huquqda alohida o'rin tutadi, chunki ular ko'p jihatdan bu erda nazariy ko'rinishga yaqinlashadi, keyinchalik ma'lum amaldagi qonunlarda konkretlashtirilgan sektorlararo xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu cheklovlar... ular shaxsning erkinligi va xavfsizligi darajasini aniqlashga imkon beradigan o'ziga xos ko'rsatkich sifatida ishlaydi” [9, 108-bet].

A.A. Pereverzev fikricha: “Subyektiv huquqlarni cheklash mumkin boʻlgan maqsadlardan kelib chiqib, tegishli maqsadga erishish zarurati paydo boʻladigan amaliy holatlar aniqlanadi. Bu holatlar yuzaga kelganda, subyektiv huquqni cheklash orqali ham koʻzlangan maqsadga erishish mumkin boʻladi”[10, 68-bet].

2005-yilda Xalqaro sogʻliqni saqlash qoidalari (XSSQ) qabul qilindi. Uning maqsadi davlatlar epidemiya va pandemiya kabi jamoat salomatligiga oid favqulodda vaziyatlarga qarshi choralar koʻrayotganda inson huquqlarini hisobga olishini taʼminlash edi [5, 6-bet]. Bu OIV/OITS, gemorragik isitma va SARS virusi kabi kasalliklarning paydo boʻlishi tufayli zarurat tugʻildi. 2005-yilda XSSQning qabul qilinishi har qanday kasallik tarqalishining oldini olish, unga qarshi kurashish va uni nazorat qilish hamda bu kasalliklarga jamoat salomatligi nuqtai nazaridan javob berish uchun moʻljallangan edi. XSSQning 3(1)-moddasiga koʻra, davlatlar ushbu qoidalarni shaxsning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini inobatga olgan holda amalga oshirishlari shart. Bundan tashqari, 3(2)-modda qoidalarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustaviga muvofiq amalga oshirilishi lozimligini belgilaydi. Bu esa davlatlardan Covid-19 kabi jamoat sogʻligʻi bilan bogʻliq favqulodda vaziyatlarda qoidalarni qoʻllashda inson huquqlari tamoyillari va meʼyorlariga rioya etishlari kutilayotganini bilvosita tan oladi. BMTning Covid-19 davridagi koʻrsatmalari davlatlar aholi salomatligi va farovonligini himoya qilish uchun favqulodda choralar koʻrishga majbur boʻlganini eʼtirof etadi, biroq bunday choralar qonun ustuvorligiga asoslanishi zarurligini taʼkidlaydi [7]. Favqulodda vaziyatlarda davlatlar qoʻllaydigan favqulodda vakolatlar vaqt bilan chegaralanishi va normal holatga qaytish imkoni tugʻilgunga qadar vaqtinchalik xususiyatga ega boʻlishi lozim. Hech qanday sharoitda toʻxtatib qoʻyilishi mumkin boʻlmagan huquqlarni himoya qilish uchun kafolatlar oʻrnatilishi shart.

Inson huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro bitimlar oddiy (normal) huquqiy tartibot sharoitida ham, biron-bir favqulodda tartibot (favqulodda holat, harbiy holat, qamal holati va boshqalar) joriy etilganda ham huquq va erkinliklarni cheklashga ruxsat beradi.

Shaxsning huquq va erkinliklarini cheklashning xalqaro qoidalari Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi Paktning, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi Paktning, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari toʻgʻrisidagi Yevropa Konvensiyasining qator moddalarida oʻz aksini topgan. Ushbu qoidalarning barchasi ham inson huquqlarini cheklashni emas, balki cheklashdan himoyalani shart qoidalarni ham aks ettiradi.

Shu maʼnoda, inson huquqlarini cheklashga oid xalqaro standartlarni ikki toifaga ajratish mumkin:

- 1) inson huquqlarining cheklanishidan himoya qiluvchi, kafolat beruvchi normalar;
- 2) inson huquqlarini cheklash shartlari va tartibini belgilab beruvchi normalar.

Covid-19 inqirozining boshlanishi hukumatlar va shaxslar uchun misli koʻrilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Xususan, u asosiy huquqlarni cheklash masalalarini oldingi oʻringa olib chiqdi, chunki virusning mamlakatlarga kirib kelishining oldini olish, uni tarqalishini toʻxtatish va fuqarolarni xavfsizligini taʼminlash orqali rivojlanayotgan vaziyatga tezkor munosabat bildirish zarur edi. Odatdagi pandemiyalardagi kabi, Covid-19 bilan bogʻliq asosiy muammo yuqori darajadagi yuqumlilik boʻlib, bu harakatlanish, yigʻilishlar va uyushmalar erkinligi kabi asosiy huquqlarni cheklashni taqozo etdi. Shunday qilib, Covid-19 nafaqat jamoat salomatligi, balki inson huquqlari inqiroziga ham aylanishi muqarrar edi.

Ko'plab davlatlar bu vaziyatga tayyor emasdi va jiddiy oqibatlariga duch keldi. Pandemiya nisbatan javoblar turlicha bo'ldi. Ba'zi davlatlar samarali choralar ko'rgan bo'lsa, boshqalari o'z harakatlarini yaxshi muvofiqlashtira olmadi, bu esa pandemiyaning ta'sirini yanada kuchaytirdi [4]. Qisqasi, pandemiya eng yuqori darajada tayyorgarlik, hushyorlik va siyosiy irodaning etishmasligini yaqqol ko'rsatdi. Agar biz kelajakda bunday vaziyatdan qochmoqchi bo'lsak, faol, muvofiqlashtirilgan, o'zaro bog'liq, hisobdor, adolatli va teng huquqli yangi tizimni joriy etish orqali yondashuvimizni o'zgartirishimiz lozim.

Davlatlar favqulodda holatlarni e'lon qilish va chekinish qoidalarini qo'llashga harakat qilgani sababli, bu davrda davlatlar tomonidan hokimiyatni suiiste'mol qilish, shu jumladan kuch ishlatish va hibsga olish tahdidlari haqida xavotirlar paydo bo'ldi. Shuning uchun Covid-19 davrida konstitutsiyaviy barqarorlik masalasi doimiy bahs-munozara mavzusi bo'ldi[3]. Favqulodda vaziyatlarda sog'liqni saqlash sohasidagi harakatlar va inson huquqlarini hurmat qilish zarurati o'rtasidagi ziddiyat ko'p yillar davomida yaqqol namoyon bo'ldi. OIV va Ebola virusi kasalligi epidemiyalari paytida jamoatchilikni himoya qilish uchun shaxslarning huquqlarini cheklash kerakmi yoki yo'qmi degan bahsli masalalardan biri edi. Tadqiqotchi Manning ta'kidlashicha, favqulodda vaziyatlarda sog'liqni saqlash sohasidagi harakatlar inson huquqlaridan foydalanishga potensial tahdid solmoqda. Shu sababli, ular har bir davlat sog'liqni saqlash siyosati va dasturini huquqlarga asoslangan tahlildan o'tkazishni taklif qiladilar [6, 6-23-bet].

1985-yilda BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalaridan cheklashlar va chekinishlarni talqin qilishning Sirakuza tamoyillari" qabul qilingan. Sirakuza tamoyillarining joriy etilishi xalqaro paktdagi cheklov va chekinish qoidalarini yetarli darajada talqin qilish zaruratidan kelib chiqqan. Tamoyillarning kirish qismida ushbu qoidalarni suiiste'mol qilish qonun ustuvorligini ta'minlash uchun yo'l qo'yiladigan cheklovlar va chekinishlarning shartlari va asoslarini chuqurroq o'rganishni talab qilishi e'tirof etilgan [11]. Xalqaro pakt inson huquqlari bo'yicha boshqa asosiy hujjatlar singari, bir qator huquq va erkinliklarni, jumladan, yashash huquqi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, qiynoqlardan, shafqatsiz yoki g'ayriinsoniy muomaladan erkinlik, erkinlik huquqi, shaxsiy hayot huquqi hamda fikr, vijdon va din erkinligini kafolatlaydi. Biroq, 4-modda ba'zi hollarda ushbu huquq va erkinliklarning cheklanishiga yo'l qo'yadi.

Millat hayotiga tahdid soluvchi va mavjudligi rasman e'lon qilingan favqulodda holatlar davrida ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar, agar bunday choralar ularning xalqaro huquq bo'yicha boshqa majburiyatlariga zid bo'lmasa va faqat irqi, rangi, jinsi, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishi bo'yicha kamsitishni nazarda tutmasa, vaziyat taqozosi bilan qat'iy talab qilingan darajada ushbu Pakt bo'yicha o'z majburiyatlaridan chekinish choralarini ko'rishlari mumkin.

Sirakuza tamoyillari 4-moddada nazarda tutilgan cheklovlarni yanada batafsil ko'rib chiqadi. 25-bandida aholining salomatligini himoya qilish istagi, agar davlat aholi yoki ayrim shaxslarning sog'lig'iga jiddiy xavfni bartaraf etish choralarini ko'rish zarur bo'lsa, ba'zi huquqlarni cheklash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi belgilangan. Bu chora-tadbirlar kasallik yoki shikastlanishning oldini olishga yoki bemor yoki shikastlanganlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tamoyillarning I qismida favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan cheklovlarga oid umumiy talqin tamoyillari bayon etilgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: barcha cheklov shartlari tegishli huquqqa qat'iy muvofiq talqin qilinishi, qonunda nazarda tutilishi va Paktning

maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak, shuningdek, cheklov o'zboshimchalik bilan emas, balki faqat belgilangan maqsadda qo'llanilishi kerak. Shuningdek, har qanday cheklov unga e'tiroz bildirish va uni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, davlatlar esa belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lganidan ortiq cheklovchi vositalardan foydalanmasligi shart. Shuningdek, bu cheklovlarni noqonuniy yoki suiiste'mol qilishdan himoya qilish uchun yetarli kafolatlar va samarali vositalar talab etiladi. Sirakuza tamoyillari davlat zimmasiga shaxs huquqlariga qo'yilgan cheklovlar jamiyatning demokratik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ko'rsatish vazifasini yuklaydi.

Sirakuza tamoyillarining 39-bandida ommaviy favqulodda vaziyatlar, agar bunday favqulodda vaziyatlar millat hayotiga tahdid solsa, huquqlarni cheklash sababi sifatida tan olinadi. Vaziyat butun aholiga, aholining jismoniy daxlsizligiga, davlatning siyosiy mustaqilligi yoki hududiy yaxlitligiga, shuningdek, asosiy huquqlarni himoya qilishga mas'ul bo'lgan muassasalarning mavjudligi yoki asosiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan favqulodda va haqiqiy yoki yaqinlashib kelayotgan xavf bo'lishi kerak.

48-banda jamoatchilik uchun favqulodda vaziyatni hal qilish imkonini berish uchun huquqlarni cheklash uchun imkon qadar qisqa muddat zarurligi ta'kidlanadi. Chekinish uchun "qat'iy zarurat" tamoyili obyektiv tarzda qo'llanilishi va chora haqiqiy, aniq, hozirgi yoki yaqinlashib kelayotgan xavfga qaratilgan bo'lishi kerak.

56- va 57-bandlarga e'tibor qaratish lozim. 56-banda ularga ta'sir ko'rsatadigan chekinish choralari vaziyat taqozosiga ko'ra qat'iy talab qilinmaydi deb hisoblaydigan shaxslarga himoya vositalari taqdim etilishi nazarda tutilgan; 57-banda aytilishicha, milliy hokimiyat organlarining qarori chekinish choralari haqiqatan ham vaziyat taqozosiga ko'ra talab qilinishi yoki qilinmasligini aniqlashda yakuniy deb qabul qilinishi mumkin emas. Ushbu ikki band favqulodda vaziyatlarda davlatga berilgan vakolatlarini cheklash uchun ishlaydi. Bu Covid-19 pandemiyasi boshlanganidan beri ba'zi mamlakatlar va shtatlar hukumatlariga nisbatan bildirilgan o'zboshimchalik va qo'pollik ayblovlarining oldini olish uchun zarurdir.

58-band qoidalari muayyan huquqlarni bekor qilmaslikka qaratilgan. Ko'rib chiqilayotgan huquqlar har qanday holatda ham bekor qilinmaydi, chunki ular muqaddas hisoblanadi. Ularga, eng avvalo, yashash huquqi, qiynoqqa solishdan, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlaridan xoli bo'lish, vijdon, fikr va din erkinligi, qonun oldida shaxs sifatida e'tirof etilish huquqi kiradi. Bu cheklanmaydigan huquqlardan biri erkin roziliksiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'tkazishdan ozod bo'lishdir. Bu Covid-19 davrida vaksinalarga qarshi bo'lgan odamlar (antivakserlar) masalasini ko'taradi. Covid-19 ga qarshi emlash majburiyati ularning Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Sirakuza tamoyillari nuqtai nazaridan ajralmas huquqini buzish ekanligini da'vo qilganda, emlashga qarshi bo'lganlar ushbu bandga to'g'ri keladimi, degan savol yuzaga keladi. Vaksinalarni tarqatish bosqichi tajriba bosqichidan o'tganligi sababli, bunday argument ustun bo'lishi mumkin emasligi qayd etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tajriba bosqichi klinik sinovlar paytida bo'ladi.

Konstitutsiyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi Sirakuza tamoyillaridagi boshqa e'tiborga molik qoidalar 60-64-bandlarni o'z ichiga oladi. 60-banda sudlar ommaviy tusdagi favqulodda vaziyatlar paytida ham o'z vakolatlarini saqlab qolishlari kerakligi yana bir bor ta'kidlanadi, bu ularga rad etib bo'lmaydigan huquqlarning buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha qaror chiqarish imkonini beradi. 61-bandga ko'ra, chekinish qonunga muvofiq amalga

oshiriladi va shuning uchun umumiy huquqiy tamoyillarga bo'ysunadi, 62-bandga ko'ra esa, favqulodda vaziyat to'g'risida ommaviy e'lon qilish va undan keyingi har qanday chekinish halollik bilan amalga oshirilishi kerak, aks holda u xalqaro huquqni buzish deb hisoblanadi. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktdagi chekinish qoidalari qonun ustuvorligi saqlanib qolgan holda cheklangan tarzda qo'llanilishi kerak.

Muhokama shuni ko'rsatdiki, davlatlarga Covid-19 kabi ommaviy favqulodda vaziyatlar paytida inson huquqlaridan foydalanishni cheklashga ruxsat berilishi mumkin. Biroq, inson huquqlarini cheklash yoki cheklash zaruriyat, mutanosiblik va qonuniylik sinovidan o'tishi kerak. BMT va mintaqaviy darajadagi shartnomalarni kuzatuvchi organlar ommaviy favqulodda vaziyatlar paytida huquqlarni cheklash yoki cheklash inson huquqlarini buzish uchun bahona sifatida ishlatilmasligi kerakligini tan oladilar. Bundan tashqari, deyarli barcha inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlarda tegishli organlarni xabardor qilish qoidalari mavjud. Bu ommaviy tuzdagi favqulodda vaziyatlarda javobgarlikni yanada ta'minlash va vakolatlarni suiiste'mol qilishning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Muhokamadan ko'rinib turibdiki, huquqlarni cheklashdan ko'ra huquqlardan chekinishga yanada qat'iyroq shartlar qo'yiladi. Biroq, davlatlar huquqlarni cheklash yoki cheklashga murojaat qilishidan qat'i nazar, asosiy huquqlar jamoat manfaatlari qurboni bo'lishi mumkin emasligi faktligicha qolmoqda. Afsuski, Sirakuza tamoyillarining umumiy tabiati cheklovchi omil bo'lishi mumkin. Sun ta'kidlaganidek, ular barcha favqulodda vaziyatlarda keng qo'llanilishi kerakligi sababli, tamoyillarni sog'liqni saqlash inqirozlarida qo'llash qiyin[8, 387-bet].

Huquqlardan chekinishga kelsak, Afrika inson huquqlari tizimi qoidadan istisno hisoblanadi. Afrika xartiyasida chekinish bandining yo'qligi Afrika mamlakatlari Covid-19 kabi ommaviy favqulodda vaziyatlar paytida huquqlardan chekinishi mumkinligi haqida bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Afrika xartiyasiga ko'ra, bunday cheklovlarga yo'l qo'yilmasligi mumkinligi ta'kidlangan[1]. Buning kutilmagan oqibati shundaki, Afrika hukumatlari favqulodda holat e'lon qilish zarurati bo'lgan joylarda, Xartiya bo'yicha ijroni nazorat qilish mexanizmi mavjud emas. Bu o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishga olib kelishi va inson huquqlaridan foydalanishga jiddiy tahdid solishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda inson huquqlaridan chekinish bo'yicha qat'iy shartlar (shu jumladan davlatlarga bildirishnomalar va monitoring mexanizmlari) qo'yilishining muhim sabablaridan biri favqulodda vaziyat sharoitida ham inson huquqlarini himoya qilishdir. Darhaqiqat, inqiroz davrida inson huquqlari va tamoyillari to'liq amal qilmasligi mumkinligidan qat'i nazar, to'g'ri belgilangan mexanizmlar va jarayonlar mavjud bo'lgan joyda inson huquqlari va demokratik tartibni yanada ko'proq himoya qilishga erishish mumkinligi ta'kidlangan.

Shunday qilib, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash bo'yicha xalqaro standartlar shaxsning huquq va erkinliklarini cheklashning umumiy shartlari va alohida holatlarini rivojlantiradi, aniqlashtiradi va shu bilan mamlakatimizda huquq ijodkorligi va huquqni qo'llovchi organlari uchun yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. African Charter on human and peoples' rights. [https://au.int/sites/default/files/treaties/36390-treaty-0011 -_african_charter_on_human_and_peoples_rights_e.pdf](https://au.int/sites/default/files/treaties/36390-treaty-0011_-_african_charter_on_human_and_peoples_rights_e.pdf)

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 179 b.
3. Constitutional Resilience and the COVID-19 Pandemic: Perspectives from Sub-Saharan Africa. Ed. Ebenezer Durojaye, Derek M. Powell. Switzerland AG 2022. – P. 181.
4. How to protect human rights in times of corona? Lessons from the Inter-American Human Rights System. MM Antoniazzi & Steininger. 1 May 2020, <https://www.ejiltalk.org/how-to-protect-human-rights-in-times-of-corona-lessons-from-the-inter-american-human-rights-system/> (24.06.2025 йилдаги мурожаат).
5. International health regulations (2005). 3 rd ed. World Health Organization 2016. – P. 6.
6. Jonathan M. Mann, Lawrence Gostin, Sofia Gruskin, Troyen Brennan, Zita Lazzarini, Harvey V. Fineberg. Health and Human Rights, Vol. 1, No. 1 (Autumn, 1994), pp. 6-23.
7. OHCHR “Emergency measures and Covid-19: Guidance”. 27 April 2020. www.ohchr.org/Documents/Events/EmergencyMeasures_COVID19.pdf.
8. Sun N. “Applying Siracusa: A call for a general comment on public health emergencies”. Health and Human Rights Journal, (2020) 22(1). – P. 387.
9. Малько А. В. Стимулы и ограничения в праве. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Юрист, 2003. 250 с.
10. Переверзев А.А. Основания ограничения конституционных прав и свобод человека и гражданина в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. Ростов н/Д, 2006. – С. 68.
11. Сиракузские принципы толкования ограничений и отступлений от положений Международного пакта о гражданских и политических правах. Организация Объединенных Наций. Экономический и социальный совет. Документ ООН E/CN.4/1985/4, Приложение (1985).
12. Эбзеев Б.С. Личность и государство в России: взаимная ответственность и конституционные обязанности. М.: Норма, 2007. 384 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).